




**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR-MAY**

2023- yilning yanvar-may oylarida, Toshkent viloyatida jami 4563,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 109,1 %ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





## 2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda

Yillar kesimida soni



1493

•Bino va inshootlar qurish

357

•Fuqarolik obyektlarini qurish

1018

•Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 73,0 %ga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 52,1 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 71,7 %ni;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,4 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 97,8 %ni;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 35,5 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 68,7 % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.06.2023- y.	01.06.2022- y.	
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2868</b>	<b>3929</b>	<b>73,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	128	194	66,0
Olmalik	133	209	63,6
Angren	169	273	61,9
Bekobod	117	180	65,0
Ohangaron	106	133	79,7
Chirchiq	273	331	82,5
Yangiyo'l	77	87	88,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	56	90	62,2
Ohangaron	62	88	70,5
Bekobod	92	118	78,0
Bo'stonliq	108	137	78,8
Bo'ka	111	138	80,4
Quyichirchiq	74	89	83,1
Zangiota	199	286	69,6
Yuqori Chirchiq	176	231	76,2
Qibray	300	413	72,6
Parkent	97	112	86,6
Piskent	55	89	61,8
O'rta Chirchiq	146	216	67,6
Chinoz	92	133	69,2
Yangiyo'l	141	198	71,2
Toshkent	156	184	84,8



# 2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


**Qibray (10,4)**



**Chirchiq sh. (9,5)**



**Zangiota (6,9)**





# Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>4563,8</b>	<b>723,9</b>	<b>2914,3</b>	<b>925,6</b>
<b>shaharlar:</b>				
Nurafshon	238,9	4,2	226,0	8,7
Olmaliq	573,4	367,3	181,4	24,7
Angren	154,2	13,4	120,7	20,1
Bekobod	159,2	98,4	49,1	11,7
Ohangaron	36,4	0	27,0	9,4
Chirchiq	214,2	18,0	176,1	20,1
Yangiyo'l	181,0	0,1	171,4	9,5
<b>tumanlar:</b>				
Oqqo'rg'on	204,0	0	195,2	8,8
Ohangaron	151,5	1,9	118,6	31,0
Bekobod	34,4	0	9,6	24,8
Bo'stonliq	197,3	26,1	107,6	63,6
Bo'ka	122,1	0	103,6	18,5
Quyichirchiq	174,3	0	136,5	37,8
Zangiota	426,6	0,3	297,2	129,1
Yuqori Chirchiq	355	34,6	253,7	66,7
Qibray	435,6	143,8	138,1	153,7
Parkent	114,9	0	64,1	50,8
Piskent	117,5	0	108,0	9,5
O'rta Chirchiq	238,3	10,2	163,1	65,0
Chinoz	73,6	0	50,0	23,6
Yangiyo'l	128,2	5,6	61,2	61,4
Toshkent	233,2	0	156,1	77,1



2023- yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 723,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 149,2 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 21,2 % punktga ko'paidi.

2023- yilning yanvar-may oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,9 %i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 105,2 %ni tashkil etgan holda 2914,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

63,9

2023- yil  
yanvar-may

66,3

2022- yil  
yanvar-may



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (297,2 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 10,2 %), Yuqori Chirchiq tumani (253,7 mlrd. so'm yoki 8,7 %), Nurafshon shahri (226,0 mlrd. so'm yoki 8,7 %)ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 20,3 %ni tashkil etdi yoki 925,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 109,3 %ni tashkil etdi.

2022- yil  
yanvar-may

**747,5**  
mlrd. so'm


2023- yil  
yanvar-may

**925,6**  
mlrd. so'm

**20,1%**

**20,3%**

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi %da



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **95,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4468,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **2,1 %** va **97,9 %**ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Ulushi %da



2023- yil  
yanvar-may



2022- yil  
yanvar-may

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi %da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 20,6 %ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,9 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2,3 % punktga kamayib, 43,6 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 0,6 % punktga kamayib, 35,8 %ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 16,0 %ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2,0 % punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 84,0 %ni tashkil etib, 2,0 %ga kamaydi.



## ulushi %da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi va 2,3 %ni tashkil etdi. Qolgan 97,7 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.



**Yirik qurilish tashkilotlari ulushi**

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi**



**Ma'lumot uchun:** Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3- o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70